latlardan qat'i nazar, kamsitishlarning har qanday shaklidan bolani muhofaza qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi, shuningdek, bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash, jumladan, fuqarolarni farzandlikka olish huquqi, bolalarni noqonuniy tarzda chegaradan o'tkazish va qaytarish to'g'risidagi prinsipial qoidalar BMT ning 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga kiritilgan[1]. Shuningdek, 1996-yil 19-oktabrdagi Bolalar uchun vasiylik javobgarligi va ularni himoya qilish choralari bo'yicha yurisdiksiya, qo'llanadigan qonun, tan olish, ijro etish va hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda[2]. Bu konvensiya O'zbekistonda 1990-yil 2-sentabrdan boshlab kuchga kirdi. 1996-yil 31-may holati bo'yicha konvensiyada 187 ta davlat, shu jumladan, O'zbekiston ham ishtirok etib kelmoqda.

Oila huquqining ko'pgina masalalari O'zbekiston Respublikasining dunyoning bir qator mamlakatlari bilan tuzilgan fuqarolik, oila, jamiyat ishlarini hal etish borasida huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomalarida ham ko'rib chiqilgan. Hozirgi vaqtda ushbu masalalarni hal etishda faoliyati kollizion oila huquqi normalarini kodifikatsiya qilishga qaratilgan hukumatlararo tashkilotlarning ahamiyati kattadir.

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi ko'pgina mamlakatlar uchun ayniqsa muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha konvensiyalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i kollizion oila huquqiga taalluqlidir. Ular orasida 1978-yil 14-martda qabul qilingan Nikoh tuzish haqiqiyligini tan olish to'g'risidagi konvensiya[3]ni hamda Er-xotinning mol-mulki rejimlariga nisbatan qo'llanadigan huquqi to'g'risidagi konvensiyani, 1993-yil 29-mayda qabul qilingan Bolalarni himoya qilish va davlatlararo farzandlikka olish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi konvensiyani tilga olib o'tish mumkin [4].

Yuqorida sanab o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, oilaviy qonunchiliklarida tafovutlar bo'lgan mamlakatlarning fuqarolari o'zaro nikoh tuzganlarida kollizion masalalarni hal etish ma'lum ahamiyat kasb etadi. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi oila huquqining kollizion normalari katta xilma-xillikka ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Jean-Marc Thouvenin "Xalqaro xususiy huquq" (Private International Law) sohasida chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalarini ko'rib chiqib, ikki muhim aspektni ta'kidlashni zarur deb hisoblaydi: birinchidan, har bir davlatda o'zining milliy oilaviy qonun va qoidalari bor, ikkinchidan, xalqaro huquq me'yorlari, xususan, Gaaga konvensiyasi kabi shartnomalar orqali nikohlarni tan olish va ro'yxatdan o'tkazish masalalari ham o'z yechimini topadi [5].

Sybe de Vries chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohlarni ro'yxatga olishda asosiy muammo sifatida milliy qonunlarning farqliligini ko'rsatadi. Uning fikricha, har bir davlatning oila huquqi tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega va chet el nikohlarini ro'yxatga olishda ayni shu farqlar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u shunday fikrni bildiradiki, bunday tizimlarning birlashishi, odatda, xalqaro qonunchilik orqali, masalan, nikohni ro'yxatga olish yoki ajralishni tan olishda o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

De Vries, shuningdek, chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohlarni ro'yxatga olish, ajralishni tan olish va oila huquqiga oid boshqa huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xalqaro shartnomalarni barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishining ahamiyatini ta'kidlaydi [6].

Nikohga oid huquqiy layoqat, ya'ni nikoh tuzish huquqi va uni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi holatlarning yo'qligi aksariyat davlatlarda turmush qurayotgan shaxslarning fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Turli davlat fuqarolari o'rtasidagi nikoh bekor qilinganda, ayrim mamlakatlarda urning fuqarosi bo'lgan

davlat qonunlari qo'llanadi. Shuningdek, bir mamlakatda qonuniy asosda rasmiylashtirilgan nikoh boshqa davlat tomonidan avtomatik ravishda tan olinmasligi mumkin. Er va xotinning mulkiy munosabatlari bir qator mamlakatlarda er fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlariga binoan hal etiladi. Vengriya Respublikasi Xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunining 31-paragrafi bo'yicha nikoh haqiqiyligining moddiy-huquqiy shart-sharoitlari nikoh tuzuvchilarning "umumiy shaxsiy qonuni" bilan tartibga solinadi [7].

Agar bu shaxslar fuqarolikda turgan davlatlarning qonunlari turlicha bo'lsa, "har ikki tomon qonunlari bo'yicha haqiqiylik sharti mavjud" bo'lgan hollardagina nikoh haqiqiy deb hisoblanadi. Vengriyada nikoh shakliga nisbatan nikoh tuzilgan joy huquqi qo'llanadi. Xitoy Xalq Respublikasida XXR fuqarosi chet ellik bilan nikoh tuzayotganda nikoh tuzilayotgan joy qonuni qo'llanadi, nikoh tugatilayotganda esa ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilingan sud joylashgan joy qonuni qo'llanadi (XXR ning 1986-yilda qabul qilingan "Fuqarolik huquqi umumiy qoidalarini"ning 147-moddasi) [8]. Vengriya va Serbiyada nikohni tugatish masalalarini hal etishda, qoida bo'yicha, er va xotinning davlatlardagi fuqarolik qonunlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Material va metodlar

Doktrinal huquqiy tadqiqot (sifatli): ushbu tadqiqotning asosiy qismini tashkil qiladi va bunga quyidagilar kiradi [9]:

Qiyosiy huquq tahlili. Chet el fuqarolari bilan nikohni ro'yxatga olish bilan bog'liq qoidalaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun bir nechta yurisdiksiyalarning nikoh qonunlari (ham umumiy huquq, ham fuqarolik huquqi tizimlari)ni o'rganish. Bu tegishli qonunlar, qoidalar va ma'muriy ko'rsatmalar-ni tahlil qilishni talab qiladi.

Xalqaro huquq tahlili. Ajralishlar va ajralishlarni tan olish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (va boshqa tegishli oilaviy huquq hujjatlari) kabi tegishli xalqaro shartnoma va konvensiyalarni tahlil qilish, ularning

xorijiy nikohlarni tan olish va tartiblarni uyg'unlashtirishga ta'sirini baholash.

Sud amaliyoti tahlili. Sudlar chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish bilan bog'liq huquqiy qoidalarini qanday talqin qilganliklari va qo'llaganliklarini aniqlash uchun turli yurisdiksiyalardagi sud amaliyotini ko'rib chiqadi va bu qonunlarning amalda qanday qo'llanishi va noaniqliklarni ochib beradi.

Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish. Xalqaro oila huquqi, qiyosiy oila huquqi va chet el fuqarolari bilan nikohni ro'yxatga olish bilan bog'liq huquqiy masalalar bo'yicha mavjud akademik adabiyotlarni to'liq ko'rib chiqish kontekstni va qo'shimcha tadqiqotga muhtoj sohalarini aniqlash uchun muhimdir.

Tadqiqot natijalari

Xalqaro oilaviy huquqiy munosabatlarda "oqsoqlanadigan" norma muammosi mavjud bo'lib, u haqida Qirg'iziston milliy universiteti olimi E.Kurumshiyeva shunday fikr bildiradi: "Bu muammo davlatning o'z milliy qonunchiligidagi nikoh tuzish shakli va tartibi boshqa davlatlarda o'rnatilgan tartib va shartlardan farqlanishi hisobiga ularni tan olmasligi oqibatida kelib chiqadi. Masalan: Isroilda chet davlatda tuzilgan aralash nikoh, faqatgina ular sinagogda nishonlangan bo'lsagina tan olinishi belgilangan. "Oqsoq nikoh" xalqaro hayotda jiddiy izdan chiqaruvchi hodisa sifatida baholanadi hamda salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi" [10].

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nikohning haqiqiy emasligi, er va xotinning shaxsiy mulkiy va nomulkiy munosabatlari, ota-onalar va bolalarning huquqlari va majburiyatlari, balog'atga yetgan farzandlar va boshqa oila a'zolarining aliment majburiyatlari singari oila qonunchiligidagi muammolar hal etib berilgan. Bu sohadagi qonuniy tartibga solishning kengaytirilganligi, kollizion normalarning yanada batafsil yoritilganligi va jahon an'analariga mos kelishini aytib o'tish lozim. Xususan, ko'plab xorijiy davlatlarda kollizion oila huquqi normalari yangilanish bilan birga, Avstriya, Vengriya, Lixtenshteyn,

Turkiya, Shveysariya kabi davlatlarda xalqaro xususiylar huquq to'g'risidagi yangi qonunlarga yoxud oila yoki fuqarolik kodekslariga kiritilgan.

Xalqaro hamkorlikning hozirgi shart-sharoitlarida, ya'ni migratsiya, turizm va tadbirkorlikning kengayishi, xalqaro do'stona aloqalar O'zbekiston fuqarolarining chet elliklar bilan tuzayotgan nikohlari soni oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday nikohlarning tuzilishi, o'z navbatida, bolalar va ularning ota-onalarining turli mamlakatlar fuqaroligida bo'lishlari soni ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari o'rtasida yoki chet el fuqarolari bilan chet el fuqarolari o'rtasida, shu jumladan, turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohlar qayd etilmoqda. Qonunchiligimizda O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikoh tuzishlari taqiqlanmagan. O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarimiz chet el fuqarolari bilan, chet el fuqarolari esa o'zaro O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 3-bobida ko'rsatib o'tilgan tartiblar va shartlarga amal qilgan holda O'zbekiston qonunlariga binoan nikoh tuzadilar.

Masalan: O'zbekiston Respublikasi fuqarosi A.R. (25 yoshda) Koreya Respublikasi fuqarosi L.Ch. bilan (31 yoshda) 2013-yilda nikoh rasmiylashtirdilar. Nikohni qayd etish davomida Koreya fuqarosining boshqa qonuniy nikohda turmasligi to'g'risidagi ma'lumotlar vakolatli organlar tomonidan olingan bo'lsa, tibbiy ko'rik masalalari Koreya fuqarosining vaqtinchalik ro'yxatga olingan hududi bo'yicha amalga oshirilgan. Bu yerda nikoh tuzilayotgan hudud prinsipiga asosan O'zbekiston qonunchiligi talablari qo'llangan.

Kodeksning 234-moddasida bu to'g'rida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlar-

da foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar". Boshqacha aytadigan bo'lsak, ushbu sohada "nikoh tuzilgan joy" prinsipi qo'llanadi.

Ispaniya, Peru va shunga o'xshagan bir qancha mamlakatlarda esa nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar ma'lum bir kishini vakil qilib, unga vakolatnoma berishlari mumkin. Bizning qonunimizda esa, ko'rinib turibdiki, bunday vakillikka yo'l qo'yilmaydi.

Chet ellik shaxslarning O'zbekiston Respublikasida nikoh tuzishlarining tartibi va shartlari ham ular fuqarosi bo'lgan davlatning milliy qonunlari bo'yicha emas, balki O'zbekiston qonunlari bo'yicha belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining oila kodeksidagi 16-moddada belgilab qo'yilganidek, nikohlanuvchilardan loqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lsa, nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni qonunchiligimizga binoan ko'pxotinlilikka (poligamiyaga) yo'l qo'yilmaydi. Aynan shu sababdan ko'p xotinli bo'lishga ruxsat berilgan mamlakat fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohda turgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida nikoh tuzishga haqli emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, chet ellik shaxs, garchi uning mamlakatida ko'p xotinli bo'lishga qonun bilan yo'l qo'yilsa-da, O'zbekistonda nikohni qayd etishlarini talab qilolmaydi.

Turkiya, Eron singari musulmon mamlakatlarida ko'pxotinlilikka yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi hududida chet elliklar nikoh tuzayotganlarida xuddi mahalliy fuqarolar nikohlarini qayd etishdagi kabi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarining bor-yoqligi va ayniqsa, nikohlanuvchilarning boshqalar bilan nikohda turish-turmasligi tekshirib ko'riladi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar to'g'risida xabar berish majburiyati nikohlanuvchilar zimmasidadir. Hujjatlarida oilaviy ahvol to'g'risida hech qanday ma'lumot yozilmaydigan chet elliklar tuzayotgan nikohlar qayd etilganda,

bunday ma'lumotlar tegishli davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi yoki vakolatxonasi tomonidan beriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha O'zbekiston hududida joylashgan chet el diplomatik va konsullik vakolatxonalarida tuziladigan nikohlar qayd etilishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan elchixonalarida va konsullik vakolatxonalarida chet el fuqarolari o'rtasida tuziladigan nikohlar, agar bu shaxslar nikoh tuzilayotgan vaqtda O'zbekistonda o'z elchixonasini yoki konsullik vakolatxonasini ochgan davlat fuqarolari bo'lsalar, o'zaro kelishuv asosida haqiqiy deb tan olinadi.

Bundan kelib chiqadigan ma'no shuki, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bunday nikohlarni haqiqiy deb tan olishlari uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi lozim:

- o'zaro kelishuv mavjud bo'lsa, ya'ni O'zbekiston Respublikasining tegishli xorijiy davlatdagi elchixonasi yoki konsullik vakolatxonasi O'zbekiston fuqarolari tuzadigan nikohni qayd etishga yo'l qo'yilsa;

- nikohlanuvchilarning har ikkalasi ham diplomatik yoki konsullik vakolatxonalarini ochgan xorijiy davlat fuqarosi bo'lsa.

Xitoy Xalq Respublikasining Konsullik konvensiyasiga ko'ra[10], "konsulxona joylashgan mamlakat qonunlariga zid kelmagan taqdirdagina konsul o'z fuqarolari tuzadigan nikohni vakolatxonada o'z davlati qonunlariga mos ravishda qayddan o'tkazish huquqiga ega".

Finlyandiya bilan tuzilgan konvensiyada ko'rsatilishicha, konsul o'zi vakil bo'lgan davlat tomonidan vakolatlangan hamda konsulxona joylashgan mamlakat qonunlariga rioya qilinadigan hollardagina nikohlarni qayddan o'tkazadi. Konsullik konvensiyalarida mahalliy shart-sharoitlar taqozo qiladigan bo'lsa, konsullikda qayddan o'tkazilgan nikohlar to'g'risida mahalliy organlarni xabardor etish nazarda tutiladi [11].

Tilga olingan shartlardan ikkinchisi, ya'ni nikoh tuzilayotgan paytda nikohlanuvchilarning har ikkalasi ham elchi yoki konsul jo'natgan davlatning fuqarosi bo'lishi lozimligi konsulxonada "aralash" nikohlar tuzilishi imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Nikohlanuvchilarning har ikkalasi aynan elchi yoki konsul jo'natgan mamlakatning fuqaroligida bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududida ham, uning hududidan tashqarida ham chet elliklar bilan nikoh tuzishlari mumkin. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 235-moddasida belgilangan. Unga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monevik qiladigan holatlar bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi".

Davlatimiz xorijiy davlatlar bilan tuzgan bir qator konsullik konvensiyalarida konsullikning nikohlarni hamda fuqarolik holati bilan bog'liq boshqa harakatlarga oid hujjatlarni qayddan o'tkazish huquqi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan fuqarolarimiz tegishli xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik yoki konsullik muassasasida tuzgan nikohlarini qayddan o'tkazaveradilar. Agar elchixona joylashgan davlatda O'zbekiston fuqarosi chet ellik bilan tuzadigan nikoh haqiqiy deb tan olinsa, konsul bunday nikohlarni ham qayddan o'tkazaveradi. Bunday nikohlar tuzilayotgan paytda konsulumiz, albatta, O'zbekiston qonunlarini, shu jumladan, O'zbekistonning kollizion normalarini ham qo'llaydi. Agar nikoh chet elda rasmiy

tuzilgan va tegishli davlat qonunlariga muvofiq ro'yxatga olingan bo'lsa, O'zbekiston ham bu nikohni tan oladi. Buni tasdiqlash uchun, odatda, nikoh to'g'risidagi guvohnoma legalizatsiya yoki apostil qilingan bo'lishi talab etiladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki xorijiy fuqarolar, agar ularning nikohi chet el davlatining qonunlari asosida tuzilgan bo'lsa, bu O'zbekiston hududida amal qilishi va e'tirof etilishi lozim.

Agar nikoh O'zbekistonda man qilingan holatlarda (masalan, yaqin qarindoshlar o'rtasida, vasiy va qo'riqchi bilan, nikoh yoshi cheklovi buzilgan holatlarda) tuzilgan bo'lsa – bunday nikoh O'zbekistonda e'tirof etilmaydi.

Xorijiy nikohlarning tan olinishi deganda, bir yurisdiksiyada qonuniy ravishda tuzilgan nikohlarning boshqa yurisdiksiyalarda, ma'lum istisnolarni hisobga olgan holda haqiqiy deb tan olinishi tushuniladi.

Xorijiy nikohlarni tan olish yurisdiksiyalarda farq qiladi va nikoh tuzilgan mamlakat qonunlariga muvofiq nikohning qonuniyligi va tomonlarning yashash joyi yoki odatiy yashash joyi kabi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 235-moddasi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish deb nomlanadi.

Umuman, nikoh va ajralish oila huquqining asosiy jihatlari bo'lib, ular ko'pincha turli yurisdiksiyadagi tomonlar ishtirok etgan hollarda xalqaro xususiy huquq tamoyillari bilan kesishadi. Quyidagi qiyosiy tahlil xorijiy nikohlarning tan olinishi, ajralish jarayoni, ajralish paytida mulkni taqsimlash, bolalarni vasiylikka olish hamda qo'llab-quvvatlashni transchegaraviy sharoitlarda o'rganadi. Ular bir necha jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ularni quyidagi jihatlarga ko'ra ajratish mumkin:

1. Umumiy huquq mamlakatlari
2. Fuqarolik huquqi mamlakatlari
3. Islom huquqi yurisdiksiyalari

Umumiy huquq mamlakatlari odatda ular sodir bo'lgan yurisdiksiya qonunlariga mu-

vofiq tuzilgan xorijiy nikohlarni tan oladilar. Biroq davlat siyosatiga zid bo'lgan nikohlar, masalan, ko'pxotinlilik yoki voyaga yetmaganlar ishtirokidagi nikohlar tan olinmasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, "sud, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida yordam va tushuntirish olish uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga murojaat qilishlari yoxud ekspertlarni jalb etishlari mumkin. Manfaaddor shaxslar talab yoki e'tirozlarini tasdiqlash uchun o'zlari asoslanayotgan chet el oila huquqi normalarining mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishga va chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida sudga va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va o'zga organlarga boshqa tarzda yordam berishga haqlidir"[13] (OK 238-modda 2, 3-qism).

Fuqarolik huquqi mamlakatlari odatda lex fori celebration tamoyiliga amal qiladi, bu nikoh marosimi bo'lib, o'tgan joyning qonunlariga muvofiq tuzilgan nikohlarni tan oladi. Shu bilan birga, fuqarolik huquqi tizimlari chet ellik nikohning haqiqiylikini aniqlashda tomonlarning yashash joyi yoki fuqaroligini ham hisobga olishi mumkin [14].

Islom huquqi yurisdiksiyalarida tomonlarning roziligi va guvohlarning hozirligi kabi islomiy qonun talablariga javob beradigan nikohlar odatda haqiqiy deb tan olinadi. Biroq islom qonunlari tan olish uchun qo'shimcha shartlar, masalan, muayyan marosim va tartiblarga rioya qilish kabilarni belgilashi mumkin. Islom huquqida nikoh (nikoh ahdi) – bu diniy va fuqarolik ahamiyatiga ega bo'lgan huquqiy shartnoma sanaladi. Islomiy nikoh qonunlari nikohning haqiqiy deb tan olinishi uchun aniq shartlarni belgilaydi, bu shartlar musulmon yurisdiksiyalarida ko'p hollarda huquqiy kuchga ega bo'ladi [15].

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro xususiy huquqda xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlar – bugungi global davrda nihoyatda dolzarb va murakkab yoʻnalishlardan biridir. Oʻzaro turli davlatlar fuqarolari oʻrtasidagi nikoh, ajralish, aliment, farzandlikka olish kabi masalalar milliy qonunlar va xalqaro normalar kesishmasida shakllanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar bilan bogʻliq oilaviy munosabatlarni tartibga solishda aniq yondashuvlarni belgilaydi. Nikoh tuzish jarayonida “nikoh tuzilgan joy” prinsipi asosiy mezon sifatida qoʻllanadi va barcha nikohlanuvchilar, millatidan qatʼi nazar, teng huquq va majburiyatlarga ega boʻladi. Shu bilan birga, eʼtibor berilishi kerak boʻlgan narsa shuki, Oʻzbekiston qonunchiligi poligamiyaga ruxsat bermaydi va xorijiy fuqarolar ushbu talabga mos kelishi shart.

Xalqaro tajribaga koʻra, koʻpgina mamlakatlarda nikoh, mulkiy va ajralish masalalarida huquqiy tafovutlar mavjud. Bu esa kollizion normalarning ahamiyatini oshiradi. Gaaga konvensiyalari kabi xalqaro hujjatlar davlat-

lararo huquqiy moslikni taʼminlashda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, sud amaliyoti, xalqaro shartnomalar va hukumatlararo kelishuvlar ushbu munosabatlarni aniq va adolatli hal qilishda asosiy rol oʻynaydi. Oʻzbekiston qonunchiligi esa chet elliklar bilan tuzilgan nikohlar va u bilan bogʻliq huquqiy munosabatlarni xalqaro standartlarga mos ravishda tartibga solib, oilaning mustahkamligi va bolalarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Umuman olganda, xalqaro xususiy huquq sohasida oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibi – davlat suvereniteti, inson huquqlari, oilaning ijtimoiy qadri va xalqaro meʼyorlar uygʻunligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Xalqaro xususiy huquq qonunlar ziddiyatlarini hal qilish va amaldagi qonunchilikni, yurisdiksiyani aniqlash hamda transchegaraviy oilaviy nizolar boʻyicha xorijiy sud qarorlarini tan olish uchun hal qiluvchi asos boʻlib xizmat qiladi. Madaniy xilma-xillik, huquqiy layoqat muammolari va odil sudlovga kirish muammolarini hal qilish orqali huquqiy tizimlar inson huquqlarini uygʻunlashtirish, adolat va hurmatga erishishga yordam beradi.

REFERENCES

1. UN Convention of 20 november 1989. Convention on the Rights of the Child. Available at: <https://www.un.org/en/childrightsconvention>
2. Hague Convention of 19 October 1996 on Jurisdiction, Applicable Law, Recognition, Enforcement and Co-operation in Respect of Parental Responsibility and Measures for the Protection of Children. Available at: <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=70>
3. Hague Convention of 14 march 1978. Convention on the Celebration and Recognition of the Validity of Marriages. Available at: <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=80>
4. Hague Convention of 29 May 1993 on Protection of Children and Co-operation in Respect of Intercountry Adoption. Available at: <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=69>
5. Thouvenin J.M. Private International Law. *The Influence of Human Rights on International Law*. Published by Springer, 2014. Available at: <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-55255-4>
6. De Vries S. The Protection of Fundamental Rights in the EU After Lisbon: An Added Value? *Maastricht Journal of European and Comparative Law*, 2013. Available at: <https://www.maastrichtjournal.eu/issues/2013>

7. According to Paragraph 31 of the Act on Private International Law of the Republic of Hungary. Available at: https://www.njt.hu/translated/doc/J1997T0013P_20200101_FIN.pdf
8. Article 147 of the General Principles of Civil Law of the People's Republic of China, adopted in 1986. Available at: https://www.npc.gov.cn/englishnpc/Law/2007-12/12/content_1383938.htm
9. Hutchinson T., Duncan N. Defining and Describing What We Do: Doctrinal Legal Research. *Deakin Law Review*, 2012, vol. 17(1), pp. 83–119. Available at: <https://www.deakinlawreview.org/vol17-1/hutchinson-duncan-legal-research>
10. Kurumshieva E.I. Kollizionnyye voprosy v semeynom prave [Conflict of laws issues in family law]. Available at: <https://elibrary.kg/articles/kurumshieva-familylaw.pdf>
11. China–Finland Consular Convention. Vienna Convention on Consular Relations of 1963. 14-act. Available at: <https://www.treaties.un.org/vienna1963>
12. Finland Consular Convention. Vienna Convention on Consular Relations of 1963. 24-act. Available at: <https://www.finlex.fi/fi/sopimukset/1963/consular-convention>
13. Raxmonqulova N.X. Consequences of Applying Personal Law in the Registration of Marriages Complicated by a Foreign Element. *Lawyer Herald*, p. 25. Available at: <https://lawyerherald.uz/articles/raxmonqulova-marriage-law.pdf>
14. Cheshir D., Nort P. *Mezhdunarodnoye chastnoye pravo* [International private law]. Progress, 1982. Available at: <https://www.progresspublishing.ru/cheshir-nort-1982>
15. Ali Sh.S. *Modern Challenges to Islamic Law*. Cambridge University Publ., 2016. Available at: <https://www.cambridge.org/core/books/modern-challenges-to-islamic-law>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.